

OMINA SHENLIKO'G'LINING "IMOMNING MANEKEN QIZI" ASARIDAGI BADIY OBRAZLAR TAVSIFI

Baxtiyorova Dilrabo Orifjon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

E-mail:baxtiyorovadilrabo45@gmail.com.

Telefon: +998(90) 282 59 71

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk adabiyotining eng sara namunalaridan biri bo'lgan asar, uning tahlili va bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu asarda «zamonaviy» hayot ichra diniy tarbiya ko'rigan qizning hayoti, alamlari va haqiqatlari aks ettirilgan. Asardagi farzand tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xatolar va ularning yechimlari, farzandlarning ota-onasi bilan qanday muomilada bo'lishi, ota-onanining farzandga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqidagi ma'lumotlarni beruvchi o'rinalar tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Din, «ommaviy madaniyat», farzand tarbiyasi, Qur'on, ilm, rahmdillik, sabr, diyonat, e'tiqod.

Turk adabiyotining mashhur yozuvchisi Omina Shenliko'g'li yoshlik chog'idan turli yo'naliishlardagi tahsil bilan bir qatorda xiristianlik dini va «Injil» kitobi bo'yicha ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanadi. Islomiy bilimlar olib fiqh va aqoidda mustahkam bilimga ega bo'ladi. Keyinchalik esa o'qib-o'rgangan bilimlari asnosida diniy-axloqiy asar “Imomning maneken qizi” asari yaratadi. Asarning bosh g'oyasi inson qanchalik atrofidan iymon bilan o'ralsasin uning ichki dunyosi bunga bo'ysunmasa, undagi yovuzlik yo'qolib qolmaydi va u doim isyonga tayyor. Asarning bosh qahramoni Fotima. U yoshligidan diniy tarbiya olgan va Qur'oni yod olgan qiz. Lekin, dinning to'g'ri o'rgatilmaganligi hamda atrofdagi kishilarining ta'sirida “zamonaviy» hayotga qiziqa boshlaydi. Dunyoqarashini o'zgartirishga intiladi. U maneken bo'lishni xoxlaydi. Bunga dini yo'l qo'ymasligini biladi. Lekin orzusidan kechmaydi, kecholmaydi. U uchun din go'yoki bir qafas, u shu qafasdan chiqib ketgisi keladi va chiqib ketadi ham... Aynan hozirgi zamonaviy dunyoni yoshlar nazdida ideallashtirish natijasida ko'plab turk oilalarida ota-onasi va farzand o'rtasida kelishmovchiliklar va katta jarliklar hosil bo'lmoqda. Asarda ana shu mavzular bir necha insonlar taqdirida ochib beriladi. Fotima ham har doimgi bir xil hayotdan nolib, otasining topgan-tutganiga shukr qilmay, noshukrchilik bilan kun o'tkazadi. Otasi Imom Yoqub esa imomlik bilan shug'ullanadi. Iymonli diyonatli inson. Uning fe'l-atvoridan ibrat olsa arzigelik. Qizi uyiga televizor olishini so'raganda qaniydi televizorda faqat islomiy kanallar qo'yilsa edi. Lekin oila davrasida ko'rib bo'lmaydigan kanallar ham mavjudligi uchun olmaydi. Lekin hozirchi biz ham televizor qarshisiga o'tirib

kinolarni ko'rsatuvlarni oila davrasida ko'ra olamizmi..? . Imom Yoqubdan yana bir ibrat oladigan jihat shundaki, Fotimaning kundan kun o'zgarib borayotganini ko'rayotgan onasi Imom Yoqubga qizimizga har doim chirolyi muomilada bo'lasiz, uni urmaysiz, so'kmaysiz deganda Imom Yoqub aytadiki:" Urish yoki so'kish biron foyda bergenida edi o'zim bilar edim. Hatto hayvonlar ham yomon muomala bilan yaxshi yo'lga yurmaydi. G'azab qanchalik kuchli ko'rinsin, aslida uning ishi vayronalikdir" deb aytadi. Bu so'zlar bir o'qilgandayoq insonni o'yantirib qo'yadi. Imom Yoqub sabr bilan qizidagi o'zgarishlarni to'g'irlashga harakat qildi. Lekin uning tutgan yo'llari samara bermay oxiri qizi uydan ketib qoldi. Bordi. Ko'rdi. O'zi istagan hayotda yashadi, maneken bo'ldi, ro'molini yechdi, mini yubka kiydi, kechalari klublarga bordi. O'sha o'zi istagan zamonaviy hayotda yashadi ham. Biroq, u o'zini baxtni his qila olmadi. Xohlagan ishini qilishi mumkin, lekin qalbining tub-tubida u hali ham musulmon qiz edi. Bu narsa unga bir lahma bo'lsin tinchlik bermadi. U Bonu Nejla, Burchin kabi qizlar bilan tanishdi. Ular ham maneken edi. Lekin, o'zlari istab bu yo'lga kirib qolgan emasdilar. Bonu mukammal oilaviy muhitning buzilishi natijasida, hayot qiyinchiliklarida adashgan, jinsini o'zgartirgan so'ng bu ishidan qattiq afsuslangan qiz. Fotima bularning barchasini ko'rib bu zulmatdan o'zini ham do'stlarini ham qutqarishga harakat qildi. U uyiga qaytdi □ Zero, gunohning qayeridan qaytilsa ham, muhimi qaytishdir. Diniy tarbiya ko'rgan bu qizning bu zamon ko'chalarida adashishida otasining ham atrofdagi kishilarning ham aybi bor. Chunki, u qizi uchun ko'p narsalarni taqipladi, ya'ni imomning qizi bo'lganligi uchun to'p o'ynama odamlar nima deydi, qo'g'irchoq o'ynama, imomning qizi qo'g'irchoq o'ynaydimi deya gapirishdi. Maktabga ham ro'mol o'rattirishmagani uchun yubormadi (lekin bilim olishiga qarshi emas edi). Shu tariqa Fotima uchun din taqiplardan iborat bo'ldi. Agar o'sha zamon ahli imomni bolasini-yu ayolini kuzatib yurganchalik o'z oilasini tartibga solsa edi, hayotimiz ancha izga tushgan bo'lar edi. Otasi qiziga biron nimani taqiplar ekan, uning o'rniga nima qilishi kerakligini aytishi kerak edi, deb o'ylayman. Masalan, senga maneken bo'lish to'g'ri kelmaydi, kel uning o'rniga dizayner bo'la qol yoki boshqa kasbni aytganida edi, menimcha Fotima bu yo'llarda adashib yurmasmidi... Ammo Imom Yoqub ilmli inson u o'z xatolarini anglatdi. Bir kun namozdan keyin jamoaga yuzlanib quyidagi so'zlarni aytadi:

-Muxtaram birodarlar, bugun sizlar bilan bola tarbiyasi haqida gaplashmoqchiman. Bu mavzu kundan-kun dolzarb masalaga aylanmoqda. Sal kech qoldik, lekin hech bo'limgandan ko'ra□..Mening ham aqlim endi kirdi. Men farzandlarimizni tarbiyalayotganimizda islomiy qonun-qoidalarga asoslanmaganimizga ishonib bormoqdaman. Turli yanglish cheklovlar bilan bolalarimizning dunyolarini ostun-ustun qildik. To'p o'ynama, Hazrati Husaynning boshi dedik, qo'girchoq o'ynama, keyin unga jon ato qilishing kerak bo'ladi, deb har xil uydurma gapirdik.

Bolalarimizga islomni sevdirib emas, qo'rqtib o'rgatdik. Dinsizlikka nisbatan bolalarimizda nafrat uyg'otmadik. Ular esa nafratlarini ota-onalariga yoki bir-birlariga nisbatan ishlatishdi. Kecha bir yozuvchi do'stim yangi nashrga tayyorlagan kitobini ko'z yogurtirib chiqishim uchun berdi. Bechora, u meni hamma narsani biladi, deb o'ylaydi. Bu kitobning nashr etilganini eshitishingiz bilan uni olib o'qinglar. Yozuvchining fikrlariga diqqat qiling, bir bo'limini o'qib beraman.

« Sevishning ham nafratlanishning ham o'z qoidalari bor. Dushmanlarimiz ham bu qoidalarni juda yaxshi biladi va o'z o'rnida foydalanishadi.

Yoshlarimizga kino, teatr va shunga o'xshash yo'llar bilan ta'sir ko'rsatishyabdi.

Ba'zida birgina karikatura ham ularning dunyoqarashini o'zgartirishga yetib ortyabdi.

Sabab?

Sababi g'oyatda aniq. Biz bolalarimizga dushmanlarimiz va ularning xiylalarini umuman o'rgatmadik. Ularga taxorat, namoz, Qur'oni o'rgatish yetmaydi. Biroq biz yetadi, deb o'yladik.

Ko'zyoshlar imomning yanoqlari-yu, burnidan oqar edi Boshini ko'tarib jamoaga nazar tashladi.

Asarda meni eng ta'sirlantirgan joyi ham shu qismi bo'ldi. Kech bo'lsa-da imomning o'z aybini tushunishi, uni to'g'irlashga harakat qilganligi katta jasoratdir. Shu bilan birgalikda, asarda ilgari surilgan g'oya ham juda dolzarb mavzulardan sanaladi. Insonga ayniqsa, yosh bolaga bir narsani ko'r-ko'rona uqtirish, uni o'zi xohlamagan taqdirda majbur qilish aslo kutilgandek natija bermaydi. Ota-onalar shunday tarbiya yo'lini tanlashlari kerakki, farzandlari bilishi lozim bo'lgan narsani jondili bilan his qilsinlar. Asar bizni ham xatolarimizni anglashga va to'g'irlashga undasa, ajab emas. Chunki biz ham hozir zinoni oddiygina munosabat sanaydigan, gunohdan hayo qilmaydigan, hayo qilganlarni esa "eskicha" deb ataymiz. Dinga esa qarilikda e'tiqod qilib qolamiz, ungacha esa bizga kim yoki nima to'sqinlik qiladi aytinchid? Albatta bu- **NAFS**. Uni yengish insonning irodasiga bog'liq. Har kimning o'z oxirati bordir. "Zero, hayot so'qmoqlarida Qur'ondan saboq oling!!!

FOYDALANILGAN ADABIYTOLAR:

1. "Imomning maneken qizi" Omina Shenliko'g'li. 2021.
2. <https://teletype.in>.